



O'QUVCHILARDAGI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXALOGIK ASOSLARI

G'aniyeva Nargiza Alijonovna

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

o'qituvchisi E-mail: ganiyevanargiza553@gmail.com

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti,

Pedagogika yo'nalishi 3bosqich talabasi

Egamqulova Malikabonu Elyor qizi

Annontatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari keng tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirish, ularning mustaqil va erkin tafakkurini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda psixologik omillar, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya hamda qiziqishlarning o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida pedagogik muhit, ta'lim metodlari va o'qituvchining yo'naltiruvchi roli muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijodiy faoliyatni tashkil etish, muammoli vaziyatlar yaratish, mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlardan foydalanish kabi samarali pedagogik usullar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish orqali ularning intellektual salohiyatini oshirish, yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini shakllantirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi. Natijalar asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ психологических основ развития творческих способностей учащихся. В современной системе образования формирование творческого мышления



учащихся, развитие их самостоятельного и свободного мышления является одной из важных задач. Подчеркивается роль психологических факторов, личностных характеристик, мотивации и интересов в формировании творческих способностей учащихся. Также научно обосновано, что педагогическая среда, методы обучения и направляющая роль учителя имеют большое значение в процессе развития творческих способностей. В этом процессе рассматриваются эффективные педагогические методы, такие как организация творческой деятельности с учетом индивидуальных возможностей учащихся, создание проблемных ситуаций и использование заданий, стимулирующих самостоятельное мышление. Также освещаются вопросы повышения интеллектуального потенциала учащихся посредством развития креативности, формирования их способности выдвигать новые идеи и повышения эффективности образовательного процесса. На основе полученных результатов показано, что психологические подходы играют важную роль в развитии творческих способностей учащихся.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the psychological foundations of the development of students' creative abilities. In the modern education system, the formation of students' creative thinking, the development of their independent and free thinking is one of the important tasks. The role of psychological factors, personal characteristics, motivation and interests in the formation of students' creative abilities is highlighted. It is also scientifically substantiated that the pedagogical environment, teaching methods and the guiding role of the teacher are of great importance in the process of developing creative abilities. In this process, effective pedagogical methods are considered, such as organizing creative activities taking into account the individual capabilities of students, creating problem situations, and using tasks that encourage independent thinking. It also highlights the issues of increasing students' intellectual potential through the development of creativity, forming their ability to put forward new ideas, and increasing the efficiency of the educational process. Based on the results, it is



shown that psychological approaches are important in the development of students' creative abilities.

Kalit: so'zlar. Ijodiy qobiliyat, ijodiy fikrlash, psixologik asoslar, o'quvchilar rivoji, ta'lim jarayoni, pedagogik yondashuv, mustaqil tafakkur, motivatsiya, ijodkorlikni rivojlantirish, pedagogik muhit.

Ключевые слова: слова. Творческие способности, творческое мышление, психологические основы, развитие учащихся, образовательный процесс, педагогический подход, самостоятельное мышление, мотивация, развитие креативности, педагогическая среда.

Keywords: words. Creative ability, creative thinking, psychological foundations, student development, educational process, pedagogical approach, independent thinking, motivation, development of creativity, pedagogical environment.

Kirish (Introduction) Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlashi, yangicha g'oyalar yaratishi va ijodiy yondashuvini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi shaxsdan ijodiy fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish hamda yangilik yaratish qobiliyatlarini talab etmoqda. Shu sababli o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Psixologiya fanida ijodiy qobiliyat shaxsning yangi g'oya va mahsulotlar yaratishga, muammolarni noodatiy usullar bilan hal qilishga bo'lgan imkoniyatlarini ifodalaydi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari ularning individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi hamda ta'lim jarayonining tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini rag'batlantiruvchi psixologik omillarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik-



psixologivada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarimas irsiyat" nasldan - naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan.

Adabiyotlar tahlili. (Literature review) Psixologiyada qobiliyat - insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalami qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi. Bugungi kunda jadal ijtimoiy o'zgarishlar davri, rivojlanayotgan jamiyatda ijodiy fikrlash qobiliyatining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati keskin ortib bormoqda. Shuning uchun ham o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi dolzarbdir. Zamonaviy maktabning muhim vazifasi o'quvchilar uchun eng yuqori darajadagi psixologik qulaylikni ta'minlaydigan va ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda intensiv rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydigan o'quv sharoitlarini yaratishdir.

O'qituvchining kasbiy faoliyati tarkibida ijodkorlik bir qator xususiyatlarga ega. Shunday qilib, V.A.Kan-Kalik va N.D.Nikandrovlar uning bir qancha darajalarini aniqlaydilar. O'qituvchi o'quvchilarga faqat ba'zi ma'lumotlarni yetkazsa, lekin ularning o'zlashtirilishiga rahbarlik qilmasa, ijodkorlik bo'lmaydi.

Ijodkorlikning birinchi darajasi - sinf bilan elementar o'zaro munosabatlar darajasi sanaladi. Rus psixologiyasida ijodkorlik insonning ijodiy qobiliyatlari, ijtimoiy ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyatni namoyish etish qobiliyatini belgilaydigan insonning alohida barqaror mulki sifatida qaraladi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik asoslari motivatsiya, emotsional intellekt, mustaqil fikrlash va ijodiy tasavvurni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon shaxsning o'zini-o'zi anglash, motivatsiya, ijobiy emotsional muhit va interfaol ta'lim metodlari orqali yangilik yaratish qobiliyatini yuzaga chiqaradi.



Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning asosiy psixologik omillari:

Motivatsiya: Ichki qiziqish va ijodga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish, muvaffaqiyatga ishonchni oshirish.

Emotsional qo'llab-quvvatlash: O'quvchi yoki shaxsda qo'rquvni yengish, erkinlik va ijodiy erkinlik muhitini yaratish.

Kreativ fikrlash: Noodatiy yechimlar topish, tasavvur va xayolotni (fantaziya) rivojlantirish.

O'zaro ta'sir: Ta'lim jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi va ijodiy muhitni shakllantirish. Bu jarayon shaxsning o'z g'oyalarini erkin ifoda etishi va ijodiy faollik ko'rsatishi uchun qulay psixologik shart-sharoitlarni yaratishga asoslanadi.

Joy Paul Guilfordning ijodiy fikrlash nazariyasi kreativlikni intellektning tarkibiy qismi, xususan, "divergent fikrlash" (ko'p variantli fikrlash) qobiliyati sifatida tavsiflaydi. U intellektni 3 o'lcham (operatsiyalar, tarkib, natijalar) orqali tushuntirib, ijodkorlikni muammolarga turli xil yechimlar topish qobiliyati bilan bog'laydi. J.P. Guilfordning kreativlik nazariyasi asoslari: Divergent fikrlash: Ijodkorlikning asosiy omili bo'lib, bir muammoning yechimi uchun ko'plab g'oyalar va variantlarni ishlab chiqish qobiliyatidir.

Intellekt tuzilishi (SI modeli): Guilford aql-idrokni faqat bitta ko'rsatkich (IQ) bilan emas, balki tarkibiy qismlar (operatsiyalar, tarkib, natijalar) majmuasi sifatida ta'riflagan.

Ijodkorlik tarkibiy qismlari: U ijodiy fikrlashni quyidagi xususiyatlar bilan bog'lagan.

Ravonlik: Qisqa vaqt ichida ko'p sonli g'oyalarni ishlab chiqarish.

Moslashuvchanlik: Turli xil qarashlar va yondashuvlardan foydalanish.

O'ziga xoslik: Noyob va nostandart g'oyalarni o'ylab topish.

Ishlab chiqish: G'oyalarni rivojlantirish va tafsilotlariga to'xtalish.

Govard Gardner qobiliyatni intellektlar to'plami deb atadi va uning yettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini O'qituvchi



pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab ko'rsatib o'tadi.

Amerikalik psixolog Frommning aytishicha, ijodkorlik - bu hayratga tushish va o'rganish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topa olish qobiliyati, bu yangi narsalarni kashf etishga e'tibor berish va o'z tajribasini chuqur anglash qobiliyatidir deb ta'kidlaydi.

A. Eynshteyn ilmiy ijodda sezgiga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, intuitiv jarayonlar tadqiqot faoliyatining haqiqiy ijodiy tarkibiy qismidir. Mantiqiy apparat, mantiqiy fikrlashning o'zi hali yangi narsalarni yaratishga imkon bermaydi. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi narsalarni yaratadigan va o'ziga xosligi va ijtimoiy yo'nishi bilan ajralib turadigan faoliyat. Ijod - bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratadigan inson faoliyati. Ijod shaxsning mehnati va sa'y-harakatlari natijasi bo'lib, ayni paytda doimo ijtimoiy xususiyatga ega.

N.V.Kuzmina pedagogik ijodning mohiyatini o'quvchilarga ta'sir qilishning yangi usullarini yaratishda ko'radi. Uning fikricha, pedagogik ixtirolar o'quv faoliyati ma'lumotlarining mazmunini tanlash va tuzish sohasida ham, o'qitish va tarbiyalashning yangi shakllari va usullarini yaratishda, pedagogik muammolarni hal qilishda turli xil faoliyat turlarini tashkil etish sohasida ham bo'lishi mumkin deb ta'kidlab o'tadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama.(Research findings and discussion)

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda ijodiy fikrlashning shakllanishi ko'p jihatdan ularning ichki motivatsiyasi, mustaqil fikrlash darajasi, emotsional muhit va ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlarga bog'liqdir. Ayniqsa, ta'lim jarayonida erkin fikr bildirish, yangi g'oyalarni ilgari surish hamda muammolarga turli yondashuvlar



orqali yechim topishga imkon beruvchi pedagogik sharoitlar ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda motivatsiya yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Ichki motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar o'quv faoliyatida faolroq ishtirok etib, yangi bilimlarni egallashga, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga intilishadi. Bu holat o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, ijodiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi munosabati ham o'quvchilarda ijodiy tashabbusning paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu natijalar shuni ham ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida ijobiy emotsional muhitning mavjudligi o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi. Agar o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda eta olsalar, xatodan qo'rqmasdan yangi g'oyalarni taklif qila olsalar, ularning tasavvuri va kreativ fikrlashi yanada rivojlanadi. Bunday muhitda o'quvchi o'z qobiliyatlarini namoyon qilishga intiladi va ijodiy faoliyatga faol kirishadi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida kreativ fikrlashning tarkibiy qismlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, natijalariga ko'ra, ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik va g'oyalarni rivojlantirish kabi jihatlar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu jihatlar o'quvchilarning muammolarga turli nuqtai nazardan qarashiga, yangi va original g'oyalar ishlab chiqishiga yordam beradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik ham ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni mustaqil izlanishga, fikrlashga va muammolarni hal qilishga yo'naltirishi zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning ijodiy imkoniyatlarini ham ochib beradi. Psixologik nazariyalar ham tadqiqot natijalarini tasdiqlaydi. Jumladan, Guilfordning divergent fikrlash nazariyasiga ko'ra, ijodkorlik muammoning bir nechta yechimlarini topa olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bu qobiliyat ta'lim jarayonida maxsus mashqlar va kreativ topshiriqlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Gardnerning ko'p qirrali intellekt nazariyasi esa har bir



shaxsda turli intellekt turlari mavjudligini ta'kidlab, o'qituvchilar o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishlari lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida shuni ta'kidlash mumkinki, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish faqatgina o'quvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq emas, balki ta'lim muhitining tashkil etilishi, pedagogik metodlarning to'g'ri tanlanishi hamda o'qituvchining kasbiy mahorati bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihaviy faoliyatni tashkil etish va ijodiy topshiriqlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun psixologik jihatdan qulay muhit yaratish, ularning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash hamda mustaqil va kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. (Summary and suggestions) Tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan an'anaviy hamda zamonaviy shakl, metod va vositalar bilish metodlari bilan qiyoslanganda o'ziga xos xususiyat namoyon bo'ladi. Bu shundan iboratki, o'qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarini ijodiy o'zlashtirish vazifasi hal qilinadi. O'qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo'lgan sinab ko'rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha yengillashtirilgansharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar bilish operatsiyalari bilan qo'shib olib boriladigan o'quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilishi foyda uchun xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ko'plab



psixologik va pedagogik omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida ichki motivatsiya, mustaqil fikrlash, ijobiy emotsional muhit va samarali ta‘lim metodlari muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladigan, xatodan qo‘rqmay yangi g‘oyalarni ilgari suradigan ta‘lim muhitida ularning kreativ fikrlashi yanada faol rivojlanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi munosabati, o‘quvchi bilan hamkorlikka asoslangan ta‘lim jarayoni ham ijodiy qobiliyatlarning shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol metodlardan keng foydalanish zarur. O‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish maqsadida rag‘batlantiruvchi, qiziqarli va muammoli topshiriqlarni ko‘proq qo‘llash tavsiya etiladi. Dars jarayonida erkin fikr bildirish va yangi g‘oyalarni ilgari surish imkonini beruvchi ijobiy psixologik muhitni yaratish muhimdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llashlari lozim. Ta‘lim jarayonida loyihaviy faoliyat, ijodiy mashg‘ulotlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish jarayonida kreativ pedagogika va zamonaviy ta‘lim texnologiyalariga oid trening va seminarlarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Godfroy J. Psixologiya, ed. 2 jildda, 1-jild. - M.: Mir, 1992. - 435-442s.
2. Drujinin V.N. Umumiy qobiliyatlar psixologiyasi. - Sankt-Peterburg: "Peter", 2000 yil.
3. Istratova O.N. Psixodiagnostika. Eng yaxshi testlar to'plami Rostov-Don: Feniks, 2006. -
4. Kruglova NV Ijodiy shaxs fanning diqqat markazida. - "TRIZ", 1991 yil.
5. Soldatova E.L. Shaxsning tuzilishidagi ijodkorlik (o'smirlik davrida ijodkorlikni rivojlantirish misolida). Dis. samimiy. psixo. Fanlar. - M., 1996 yil
6. Yakovleva E.L. O‘quvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish.
7. Lev Vygotsky — “Psixologiya razvitiya rebenka” / “Thought and Language”
8. Bolaning tafakkuri va ijodiy fikrlash rivojlanishi haqida muhim nazariyalar.



9. Jean Piaget — “The Psychology of Intelligence”
10. Bolalarda tafakkur va intellektual rivojlanish bosqichlari.
11. Joy Paul Guilford — Ijodiy fikrlash nazariyasi
12. Divergent thinking (turli yo‘nalishda fikrlash) tushunchasini kiritgan.
13. E. Paul Torrance — “Torrance Tests of Creative Thinking” bo‘yicha ishlari
14. O‘quvchilarning ijodkorligini baholash va rivojlantirish metodlari.